

OILAGA, YOSHLARGA VA AXLOQQA QARSHI JINOYATLARNING OLDINI OLIISHDA PROFAYLING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING KRIMINOLOGIK JIXATLARI

Nilufar Ashurova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD*

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlarning oldini olish jarayonida profayling texnologiyalaridan foydalanishning kriminologik jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu turdagi jinoyatlarning kelib chiqish omillari, ularning ijtimoiy xavfliligi hamda profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Profayling, kriminologiya, oilaga qarshi jinoyatlar, yoshlarga qarshi jinoyatlar, axloqqa qarshi jinoyatlar, jinoyatchilik profilaktikasi, xavf tahlili, kriminologik prognozlash, huquqbuzarliklarning oldini olish.

Zamonaviy jamiyatda oila instituti va yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Oilaning mustahkamligi jamiyat barqarorligi, ijtimoiy rivojlanish hamda kelajak avlodning sog'lom shakllanishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar har qanday jamiyat uchun jiddiy ijtimoiy xavf tug'diradi. Mazkur turdagi jinoyatlar nafaqat shaxsga, balki butun jamiyatning axloqiy asoslariga zarar yetkazadi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida oilaviy zo'ravonlik, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatlar hamda axloqqa qarshi huquqbuzarliklar soni ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu holat jinoyatchilikka qarshi kurashishda yangi profilaktik mexanizmlardan foydalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shunday zamonaviy usullardan biri profayling texnologiyalari bo'lib, ular shaxsning xulq-atvori, psixologik holati va ijtimoiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali ehtimoliy xavf darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Profayling jinoyatchilikni sodir bo'lganidan keyin aniqlash emas, balki uni barvaqt prognoz qilish va oldini olish imkonini beruvchi analitik usul hisoblanadi. Shu bois mazkur texnologiyalardan oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlarni profilaktika qilish jarayonida foydalanish masalasi kriminologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar ijtimoiy xavfliligi yuqori bo'lgan jinoyatlar qatoriga kiradi. Chunki bu turdagi jinoyatlar insonning shaxsiy hayoti, oilaviy munosabatlari, yosh avlodning ma'naviy rivojlanishi hamda jamiyatning axloqiy muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kriminologik tadqiqotlarga ko'ra, ushbu turdagi jinoyatlar quyidagi asosiy omillar bilan bog'liq:

- oilaviy nizolar va maishiy mojarolar;
- ijtimoiy-iqtisodiy muammolar;
- alkogol va narkotik moddalar iste'moli;
- yoshlar tarbiyasidagi kamchiliklar;
- internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda dunyo miqyosida oilaviy zo'ravonlik holatlari sezilarli darajada ortgan. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ayollarning qariyb 30 foizi hayoti davomida oilaviy zo'ravonlikka duch kelgan.[1]

O'zbekiston Respublikasida ham oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ichki ishlar organlari ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda oilaviy nizolar asosida sodir etilayotgan jinoyatlar sezilarli ulushni tashkil etmoqda.

Shuningdek, voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlar ham jiddiy kriminologik muammo sifatida e'tirof etiladi. Bu turdagi jinoyatlar yoshlarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda kelajakda deviant xulq-atvor shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilgan.[2] "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda[3] bu masalaning nafaqat kriminologik, balki ma'muriy va ijtimoiy jihatlariga ham alohiha e'tibor berilgan bo'lib, bunga qo'shimcha ravishda "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun[4] amal qilmoqda.

Mazkur normativ hujjatlar oilaviy zo'ravonlik, voyaga yetmaganlarga nisbatan huquqbuzarliklar hamda axloqqa qarshi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan.

Shu bilan birga, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zarurati ham mavjud. Ayniqsa, profayling texnologiyalarini jinoyatchilik profilaktikasi tizimiga joriy etish ushbu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaga, yoshlarga va ahloqqa qarshi jinoyatlar jinoyat huquqining mustaqil bo'limida joylashtirilishi mazkur sohadagi jinoyatlar o'ziga xosligini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, bunday yondashuv jinoyat qonunchiligining tizimli va aniq bo'lishiga xizmat qiladi. Masalan, oilaga qarshi qaratilgan jinoyatlar, odatda, oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib keluvchi harakatlar bilan bog'liq bo'lib, bu jamiyatning asosiy hujayrasi sifatida oilaning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qadriyatlarini himoya qilishni ta'minlashga

yo'naltirilgan. Voyaga yetmaganlarga qarshi qaratilgan jinoyatlar esa yosh avlodning xavfsizligini ta'minlash, ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarning oldini olishni ko'zda tutadi.

Bunday jinoyatlar alohida bobda jamlanishi nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham asoslidir. Nazariy jihatdan qaraganda, bunday jinoyatlar yagona jinsiy obektga – jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarini himoya qilishga qaratilgan. Amaliy jihatdan esa, jinoyat kodeksi tuzilmasining bunday mantiqiy taqsimlanishi huquqni qo'llovchilarga qulaylik yaratadi, ya'ni muayyan jinoyat turlari bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining V bobi yigirma bitta moddani o'z ichiga oladi. Uning obekti murakkab bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan uch obektdan iborat: bu voyaga yetmaganlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini muhofaza qilish, voyaga yetmaganlarning jinsiy erkinligini, shuningdek, oila va ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalashdagi qonuniy huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlardir.

Ushbu munosabatlarga muvofiq, mazkur bobdagi barcha jinoyatlar uch guruhga tasniflanishi mumkin:

1. Oilaning manfaatlariga tajovuz qiluvchi jinoyatlar (JK 122, 122¹, 124, 125-moddalari).
2. Voyaga yetmaganlarning jinsiy erkinligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar (JK 128, 128¹, 129-moddalari)
3. Voyaga yetmaganlarning normal jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126¹, 127, 127¹, 130, 130¹, 131-moddalari).

Bolani almashtirish. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 124-moddasi bolani ta'magirlik yoki boshqa past niyatlarda almashtirganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 124-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning ijtimoiy xavfi shundaki, bolani almashtirish natijasida qon-qardoshlik aloqalari majburiy ravishda uziladi, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi tabiiy munosabatlar buziladi. Bundan tashqari, insonning kelib chiqishi soxtalashtiriladi va buziladi. Bolani almashtirish aniqlangan holatda bolaning ruhiy salomatligiga jiddiy zarar yetishi mumkin, bu esa uning normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu jinoyatning obektiv tomoni bolani boshqa bola bilan almashtirish harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Bu holat ko'pincha tug'ruqxonada boshqa onadan tug'ilgan yangi tug'ilgan chaqaloqni almashtirish shaklida sodir bo'ladi. Almashtirishda ota-onalardan biri yoki ikkalasining roziligi ahamiyatga ega emas.

Jinoyat-huquqiy nuqtai nazardan, jazolash voyaga yetmagan shaxsning qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi, uning jismoniy, ma'naviy yoki psixologik

rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadigan harakatlar yoki harakatsizlik sifatida baholanadi. Bunday harakatlar bolaga nisbatan zo‘ravonlik, tahqirlash, uning jismoniy og‘riq yoki ruhiy azob chekishiga sabab bo‘lish kabi shakllarda sodir etilishi mumkin.

Mazkur masalada cheyet el tajribasiga tayanadigan bo‘lsak, AQSh qonunchiligida bolalarning seksual ekspluatatsiyasiga oid harakatlar va pornografik materiallarni tarqatish uchun javobgarlik AQSh qonunlari to‘plamining 110-bobida belgilangan. Bunday harakatlar qonunchilikda zo‘ravonlikka asoslangan jinsiy jinoyatlar qatoriga kiritiladi.

Jumladan, 225.1-modda – bolalarni savdo obekti sifatida qo‘llash, ular ishtirokidagi jinsiy xarakterdagi yoki pornografik materiallarni tarqatish maqsadidagi harakatlar uchun javobgarlik belgilanadi. 71-bob esa, pornografik mahsulotlarni virtual makonda aylanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali amalga oshirilgan harakatlar uchun javobgarlikni o‘z ichiga oladi.

Bu esa, o‘z navbatida quyidagi harakatlarni qamrab oladi:

- hiyla-nayrang yoki savdo orqali noqonuniy materiallarni sotish;
- haddan tashqari behayo materiallarni tarqatish yoki biznes maqsadida ularni jo‘natish;
- bunday materiallarni tashish, ularni tarqatish yoki sotish uchun zaxira qilish;
- pochta orqali behayo materiallar, konvertlar yoki qo‘shimchalarni yubormoq;
- import qilish, tashish, kabel yoki pullik televideniye orqali tarqatish;
- behayo nutqlarni efir orqali uzatish.[5]

Angliya jinoyat qonunchiligida jabrlanuvchining voyaga yetmaganligi aybdor shaxs javobgarligini kuchaytiruvchi holat sifatida e‘tirof etiladi. Bunda aybdor shaxs jabrlanuvchining yoshini aniq bilganligiga doimo e‘tibor berilmaydi. 1938-yildagi “Infantitsid to‘g‘risida”gi qonun (*Infanticide Act*):[6] ona tomonidan o‘zining 12 oygacha bo‘lgan bolasini o‘ldirish (infantitsid) javobgarlikni yengillashtiruvchi asos sifatida qaralmaydi va oddiy qotillik (*manslaughter*) sifatida baholanadi yoki hay‘at qarorga ko‘ra og‘ir qotillik (*murder*) sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Shu bilan birga, mazkur tushuncha nafaqat muayyan shaxsning axloqiy qarashlariga, balki jamiyatda hukm surayotgan axloqiy muhitga ham bog‘liqdir. Shu boisdan, ushbu masalani jinoyat huquqi nuqtai nazaridan maxsus o‘rgangan tadqiqotchilar jazolash tushunchasini quyidagi atamalar bilan bog‘laydilar: “tizimli ravishda jarohat yetkazuvchi ta’sir ko‘rsatish”, “alohida azob va qiynoqlar keltirib chiqarish”, shuningdek, qiynoqlar qo‘llash, azob berish, ko‘plab jarohatlar yetkazish.[7]

Shafqatsiz muomalada bo‘lish, ya’ni voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qo‘pol munosabatda bo‘lish quyidagi harakatlarni o‘z ichiga oladi deb qaraladi:

1. Jismoniy zo'rlik, voyaga yetmagan shaxsning tanasining daxlsizligiga ta'sir ko'rsatishni anglatadi. Bu holat salomatlikka jiddiy zarar yetkazmagan bo'lsa ham, bolaga nisbatan zo'ravonlik sifatida baholanadi.

Ruhiy zo'rlik, voyaga yetmagan shaxsga zarar yetkazish tahdidini bildiruvchi harakatlar orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, profayling texnologiyalarini oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar profilaktikasida qo'llash katta kriminologik ahamiyatga ega. Chunki bu usul jinoyatchilikka qarshi kurashishda reaktiv emas, balki proaktiv yondashuvni ta'minlaydi.

Ya'ni profayling orqali:

- jinoyat sodir etilishidan oldin xavf belgilarini aniqlash;
- profilaktik choralarni barvaqt qo'llash;
- ijtimoiy xavfli vaziyatlarni oldindan bartaraf etish mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, profaylingni qo'llash jarayonida inson huquqlari, xususan shaxsiy hayot daxlsizligi, mutanosiblik va kamsitilmaslik tamoyillariga qat'iy rioya etilishi zarur.

Yuqorida tahlil qilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, bir qator ilmiy xulosalar shakllantirildi. Bu, shuningdek taklif emas, balki profaylingni joriy etishdan kutilayotgan natijalar (ijobiy va ehtimoliy salbiy jihatlar) bayon qilinganligi bilan quyidagicha ahamiyatlidir:

Birinchidan, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlarning kriminologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu turdagi jinoyatlar ko'pincha ijtimoiy, psixologik hamda maishiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Profayling texnologiyalaridan foydalanish esa bunday xavfli xulq-atvor belgilarini barvaqt aniqlash imkonini beradi. Natijada jinoyat sodir etilishidan oldin profilaktik choralar ko'rish imkoniyati kengayadi hamda jinoyatchilik darajasining pasayishiga xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, profayling texnologiyalarining jinoyatchilik profilaktikasi tizimiga joriy etilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatida analitik va prognozlash imkoniyatlarini kuchaytiradi. Bu esa, jinoyatchilikka qarshi kurashishda reaktiv yondashuvdan ko'ra proaktiv yondashuvning shakllanishiga olib keladi. Natijada profilaktika faoliyati samaradorligi ortadi hamda ijtimoiy xavfli vaziyatlarni oldindan aniqlash imkoniyati kengayadi.

Uchinchidan, profayling texnologiyalaridan foydalanish voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlar va oilaviy zo'ravonlik holatlarini aniqlashda muhim kriminologik ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday jinoyatlar ko'pincha yashirin shaklda sodir etiladi va ularni barvaqt aniqlash murakkab hisoblanadi. Profayling orqali xavfli xulq-atvor belgilarini aniqlash esa bunday jinoyatlarning og'ir oqibatlarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar jamiyat barqarorligi hamda yosh avlodning ma'naviy rivojlanishiga jiddiy tahdid soluvchi ijtimoiy xavfli hodisalardan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olishda profayling texnologiyalaridan foydalanish kriminologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Profayling usullari orqali xavfli xulq-atvor belgilarini aniqlash, jinoyat sodir etilish ehtimolini prognoz qilish hamda profilaktika choralarini samarali tashkil etish mumkin. Shu bois profayling texnologiyalarini jinoyatchilik profilaktikasi tizimiga joriy etish zamonaviy kriminologiya fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization. Violence against women prevalence estimates, 2018 // WHO, UN Women, UNFPA, World Bank Group, UNDESA. Geneva, 2021 // <https://www.who.int/publications/i/item/9789240022256>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XIV bob. 76-modda 1-qism // <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-561-son // <https://lex.uz/docs/-4494709>
4. O'zbekiston Respublikasining 29.09.2010 yildagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/1685726>
5. Чупрова А. В. Ответственность за распространение порнографии с использованием информационных технологий в праве США // Медисинская наука и практика : Вестник Нижегородской академии МВД России. 2014. № 4 (28). С. 191; Стивен Э. и Джордж Брейк. Баркан. Основы уголовного правосудия. Бостон, Массачусетс: Аллин и Бэкон, 2004. стр. 123.
6. www.legislation.gov.uk/ukpga/ последнее поое'ение – 6 марта 2026 г.
7. Картавченко В.В. Уголовно-правовые аспекты жестокого обращения с несовершеннолетним: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Краснодар, 2008. С. 13.